



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлоқ
хужалиғини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжасва Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далам педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

Page Maker | Верстка | Са, ифаловчи: @tadqiqotdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Жаҳонгирбек Жонқобилов СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДА СУҒОРИШ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ.....	4
2. Обиджан Мадаминов ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР ТИЗИМИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....	10
3. Акмал Менглибоев СУРХОН ВОҲАСИДА 1921-1922 ЙИЛЛАРДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИНГ КУЧАЙИШИ.....	15
4. Baxtiyor Nazirov XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR.....	22
5. Mukhiddinjon Primov O‘ZBEKISTONDA KARTOGRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI.....	28
6. Asror Raximov QARSHI CHO‘LI TARIXIGA NAZAR.....	35
7. Kamoliddin Toshov IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN MUNOSIB HISSASI.....	42
8. Sanjarbek Shoyimov SOVET-AFG‘ON URUSHIDA O‘ZBEKISTONNING ISHTIROKI VA URUSHNING U UCHUN SALBIY OQIBATLARI.....	49
9. Ikrom Xudayberdiyev DYURAND CHEGARA CHIZIG‘IGA AFG‘ONISTON VA POKISTONNING MUNOSABATI.....	57
10. Иззат Юсупов МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА “ЎЗБЕКИСТОН ПОЧТАСИ” БУХОРО САМАРҚАНД ВА НАВОИЙ ФИЛИАЛЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	63
11. Шерзоджон Чориев АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР ТАРИХИЙ МАТЕРИАЛЛАР.....	69
12. Мардон Хасанов ХОРАЗМДАГИ ИСЛОМДАН ОЛДИНГИ ДИНИЙ ҚАРАШЛАР (ХРИСТИАНЛИК МИСОЛИДА).....	76




УДК: 9:433:908

Baxtiyor Safarovich Nazirov,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b.dots.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.
b.nazirov@dtpi.uz

XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR

For citation: Bakhtiyor S. Nazirov. WOMEN'S SPORTS PROSPECTS AND DEVELOPMENT EXISTING PROBLEMS. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 1, pp.22-27

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10614755>

ANNOTATSIYA

Uzoq tarix davomida xotin-qizlar o'zlarining teng huquqlilik, erkinlik va mustaqilliklari uchun erkaklar bilan qaysidir ma'noda kurashib kelganlar. Xotin-qizlarning erkinlik darajasi, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, tarixan har qanday jamiyat rivojining sifat ko'rsatkichi ko'rinishida qabul qilingan. So'nggi 100 yil ichida dunyoda tanilgan olimalar, shoirlar, faylasuflar va jahon arenasida sport sohasida erishayotgan betakror muvaffaqiyatlari bilan o'chmas iz qoldirgan xotin-qizlar hissasi aynan o'sha jamiyat, millat rivojining salmoqli sifat ko'rsatkichidir. Xotin-qizlar fenomenining ijobiy "portlash effekti" natijasida erkaklar qatorida nafaqat o'z mutaxassisliklari va ma'naviy sohada, balki katta sport yutuqlari sari intilish borasida ham tenglikka erisha olishdi. Mazkur maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar sportini rivojlanmtirishning keng istiqbollari va mazkur yo'nalishda hal etilishi lozim bo'lgan mavjud muammolar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Barchinoy, To'maris, Xotin-qizlar qo'mitasi, Badiiy gimnastika, psixofiziologik xususiyatlar.

Бахтиёр Сафарович Назиров,
Доктор философии по истории (PhD), и.о.доц.
Денаусский институт предпринимательства и педагогики.
b.nazirov@dtpi.uz

ПЕРСПЕКТИВЫ И СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО СПОРТА

АННОТАЦИЯ

Женщины издавна боролись с мужчинами за свои равные права, свободу и независимость. Уровень свободы женщин и девушек, их участие в общественной жизни исторически принято качественным показателем развития любого общества. За последние 100 лет вклад всемирно известных ученых, поэтов, философов и женщин, оставивших

неизгладимый след на мировой арене своими уникальными успехами в области спорта, является значимым качественным показателем развития этого общества и нации. В результате положительного «взрывного эффекта» явления женщины смогли добиться равенства с мужчинами не только в своей специализации и духовной сфере, но и в стремлении к большим спортивным достижениям. В данной статье говорится о широких перспективах развития женского спорта в Узбекистане и существующих проблемах, которые необходимо решить в этом направлении.

Ключевые слова: Барчиной, Томарис, Комитет женщин и девушек, спортивная гимнастика, психофизиологические особенности.

Bakhtiyor S. Nazirov,

Doctor of philosophy (PhD) in historical sciences, associate professor.

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy.

b.nazirov@dtpi.uz

WOMEN'S SPORTS PROSPECTS AND DEVELOPMENT EXISTING PROBLEMS

ABSTRACT

For a long period of time, women have fought with men for their equal rights, freedom, and independence. The level of freedom of women and girls, and their participation in social life, has historically been accepted as a qualitative indicator of the development of any society. In the last 100 years, the contribution of world-famous scientists, poets, philosophers, and women who have left an indelible mark on the world arena with their unique successes in the field of sports is a significant qualitative indicator of the development of that society and nation. As a result of the positive "explosion effect" of the phenomenon, women were able to achieve equality with men not only in their specializations and in the spiritual sphere but also in the pursuit of great sports achievements. This article talks about the broad prospects of the development of women's sports in Uzbekistan and the existing problems that need to be solved in this direction.

Index Terms: Barchinoy, Tomaris, Committee of Women and Girls, Artistic gymnastics, psychophysiological features.

1. Dolzarbligi:

Xalqimiz o'z tarixida ham aqlan ham jismonan barkamol, farzandlariga mehr ko'rsatishgini emas, balki butun el yurt, millat ozodligi yo'lida jon olib jon berishga qodir fidoiy xotin-qizlarni ko'p ko'rgan. Ularning yorqin va so'nmas siymolarini badiiy asarlarga olib kirgan. Barchinoy, To'maris kabi jasur qahramonlari bilan faxrlanishgan.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda barcha erishayotgan yutuqlarimizda xotin-qizlarning munosib o'rni bor. Bu iqtisodiyot sohasimi, ma'naviyat yo ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash yoki ilm-fan sohasi, madaniyat va sportda bo'ladimi, bari-barida ayollarimizning ulkan hissasini doimo sezib turamiz. Ayniqsa, sog'lom avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalashda xotin-qizlarimizning beqiyos faoliyatini e'tirof etish lozim. Shu bois ham mamlakatimizda istiqloq yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlashga, ularning salomatligiga, onalik va bolalikni himoya qilishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdan boshlab jamiyatimizda ayollarning munosib o'rni va mavqiyi bo'lishi davlatimizning ustuvor siyosatiga aylandi. Ayniqsa birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan turli yillarning «Oila» (1999), «Sog'lom avlod» (2000), «Ona va bola» (2001), «Obod maxalla» (2003), «Sixat salomatlik» (2005), «Obod turmush» (2013), «Sog'lom bola yili» (2014), Sh.M.Mirziyoyev tomonidan esa «Sog'lom ona va bola yili» (2016), «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» (2021) deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan ishlab chiqiladigan uzoq muddatli davlat dasturlarining izchillik bilan amalga tadbiiq etilayotganligi ayollar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, salomatligini mustahkamlash, ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga

olib kelmoqda [1].

Qayd etish lozimki, ta'lim, sixat-salomatlik, jismoniy tarbiya va sportga oid hujjatlarda o'z aksini topib kelayotgan Davlat dasturlarining yanada chuqurroq va keng ma'noda amalga oshirishida, yoshlarimizni ma'naviy va jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashda xotin-qizlar sportini o'rni beqiyosdir.

Xotin-qizlarimiz bugun mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hayotidagi yangilanish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda, oila va jamiyat ravnaqiga daxldorlik hissi bilan yashamoqda. Bu davlatimiz rahbari rahnamoligida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish yo'lida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlarning yorqin samarasidir. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan 2004-yil 25-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida Andijon viloyatida ayollarga o'z salohiyatini namoyon etishi uchun shart-sharoitlarni yaratish bilan birga onalik va bolalikni muhofaza qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda [9].

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Tadqiqot olib borish jarayonida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, ob'ektivlik, tizimli tahlil, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik, og'zaki tarix kabi usullar yordamida xotin-qizlar sportning rivojlantirish istiqbollari, sohada bartaraf etilishi zarur bo'lgan muammolarga oid birlamchi hujjatlar tahliliga tayangan holda atroflicha tadqiq etildi.

Muammoni ilmiy tadqiq etish darajasini aniqlashda mavzuga oid qilingan ilmiy tadqiqot ishlariga B.Mambetovning "Qoraqalpog'iston jismoniy tarbiya va sport an'analari va tiklanish muammolari. XX asr", Z.Abdullaevning "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning shakllanishi va rivojlanishi tarixi (1991-2006)", B.Nazirovning "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi (XX asr- XXI asr boshlari Surxon vohasi misolida)", M.Jumaniyozovaning "Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashda jismoniy madaniyatning ijtimoiy morfofunksional jihatlar" mavzularida bajargan PhD dissertatsiyalarini kiritishimiz mumkin. Mazkur dissertatsiyalarda jismoniy madaniyat va sport ishlari umumiy tomonlama tahlil qilingan bo'lib, xotin-qizlar sportini rivojlantirishning istiqbollari va mavjud muammolarini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilinmagan.

O'zbekistonda xotin-qizlar salomatligini ta'minlashning ayrim ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-huquqiy, oilaviy munosabatalar bilan bog'liq jihatlarini Ya. Abdullaeva, F. Abdurahmonova, S.Ahrorova, R. Arziqulov, X. Bobomuratova, G.G. Inag'omova, R.S.Samarov, G.Matkarimova, R.Muhammedov, M.Xolmatova, A.Huseinova, N.Nishonova, O.Nishonova, F.Saifnazarova kabilar o'rganishgan.

Shunday bo'lsa-da, xotin-qizlar sportini rivojlantirishning istiqbollarini keyingi besh yil ichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan innovatsion o'zgarishlar nuqtai nazaridan tadqiq etish zarurati mavjuddir.

3. Tadqiqot natijalari:

Yurtimizda sportning nafis va nozik, ayollarga xos turlarini rivojlantirish, sport bilan shug'ullanishni aholining kundalik hayot tarziga aylantirish va shu orqali ayollar salomatligini asrash, ayolda o'z sog'ligiga bo'lgan mas'ullikni kuchaytirish, sog'lom avlod tug'ilishini ta'minlash masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylandi va bu borada Davlat rahbari boshchiligida keng islohotlar olib borildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq joylardagi bolalar sporti ob'ektlarida band bo'lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "Badiiy gimnastika bo'yicha bolalar-o'smirlar ixtisoslashtirilgan respublika olimpiya zaxirasi sport maktabini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari xotin-qizlar o'rtasida sportni keng ommalashuvida muhim ahamiyat kasb etdi [8. 102-b]. Yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida sportni ommalashtirish borasidagi ishlarning davomi sifatida umumta'lim maktablarida 220 dan ziyod sport zallari barpo etilganligi ham diqqatga sazovordir [7. 6-bet].

Sog'lom turmush, navqironlik va go'zallik sport bilan shug'ullanishni taqozo etadi. Bugun xotin-qizlarimiz mana shu haqiqatni – sportning jismoniy va ruhiy barkamollikda muhim o'rin

tutishini tobora teran anglab yetmoqdalar. Buni sportchi xotin-qizlarimiz safi kengayib borayotganida ham ko'rish mumkin. Erishilayotgan yutuqlar qatorida hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar ham anchagina. Muammolarni keltirib chiqargan omillarni atroflicha o'rgangan holda, oila institutini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ayollarning huquqiy madaniyati va ma'naviyatini yanada yuksaltirish choralari ko'rilishi lozim. Oliy o'quv muassasalarida bu ishlarni yanada jonlantirish, mahallalar hamda tegishli tashkilot va muassasalar hamkorligida xotin-qizlar sportini rivojlantirish masalalari ham doimiy e'tiborda bo'lishi kerak. Ma'lumki, salomatlikni asrash va mustahkamlashning eng yaxshi yo'li – sport bilan shug'ullanishdir. O'zbekistonda bu masalaga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida o'sib kelayotgan yosh avlodni sportga ommaviy jalb qilish bo'yicha uch pog'onali tizim yaratildi. Nafaqat poytaxtimiz, balki chekka tumanlarda ham eng zamonaviy sport majmualari barpo etilib, ularda kattalar ham, bolalar ham sport bilan shug'ullanishi mumkin. Barcha o'quv yurtlari yaxshi jihozlangan sport zallari va inshootlariga ega. Ayniqsa, ayollar va bo'lg'usi onalar –qizlarimizning jismoniy tarbiya hamda sport bilan muntazam shug'ullanishi nihoyatda ahamiyatlidir. Bu O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Barcha viloyatlarda badiiy gimnastika, stol tennisi va badminton seksiyalari faoliyati e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Xotin-qizlarimizning O'zbekiston Olimpiya harakatida ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish maqsadida Milliy olimpiya qo'mitasi huzurida “Ayol va sport” komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, xalqaro, respublika, shuningdek, viloyat va tumanlardagi ko'plab musobaqalar aynan xotin-qizlar uchun tashkil etilmoqda. Bu sohadagi amalgam oshirikayotgan ishlar o'z natijasini bermoqda. Hozirda mamlakatimizning shahar va qishloqlarida yashayotgan xotin-qizlar jismoniy tarbiya hamda sport bilan faol shug'ullanmoqda. So'nggi yillarda Xotin-qizlar qo'mitasi. Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi bilan hamkorlikda xotin-qizlarni sportga yanada kengroq jalb qilish muammolariga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilib kelinmoqdamoqda. Har yili turli musobaqalarda 1,2 million nafardan ortiq xotin-qiz qatnashmoqda [10. 78-79 b.]. Bundan tashqari, o'tgan yili maktab, kollej va litsey o'quvchilarining spartakiadasi, turli tashkilotlardagi xizmatchi xotin-qizlarning “Sport – salomatlik garovi”, oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida “Sport – sog'lom turmush tarzi” kabi musobaqalari va sport marafoni o'tkazildi.

Joylarda, birinchi navbatda, qishloqlarda qizlarni sport bilan shug'ullanishga jalb qilish masalasi sinchkovlik bilan o'rganib chiqilishi zarur. Chunki, bu ularni jismoniy va ma'naviy tarbiyalash yo'nalishlaridan biridir. Qishloqlarda badiiy va sport gimnastikasi kabi zamonaviy sport turlarini yanada rivojlantirish zarur. Bunda kam ta'minlangan oilalar qizlarini sport bilan shug'ullanish uchun kerakli sport kiyimi va jihozlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi muhimdir. Bundan tashqari, vazirlik va idoralarda mehnat qilayotgan xotin-qizlar spartakiadasi, milliy sport turlari bo'yicha musobaqalar rejalashtirilgan tadbirlar qatoriga kiradi.

Ayollar sportini rivojlantirish va ommaviylashtirish, ularni sog'lom-lashtiruvchi sport turlariga kengroq jalb etish, oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi, xotin-qizlar qo'mitasining joylardagi bo'linmalari tomonidan xotin-qizlarni ommaviy ravishda jismoniy tarbiya va sportga jalb etish maqsadida sport musobaqalarini tashkil qilinishi, ayollarimizni sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirmoqda.

Jumladan mahallalarda maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqa soha vakillari orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini jadal olib borilishi natijasida sport tadbirlarida ishtirok etayotgan xotin-qiz soni 2017-yilga kelib 8,5 milliondan oshib ketdi. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan xotin-qizlar soni esa, 4300000 taga yetdi, ushbu sport bilan shug'ullanuvchilarning 71% i qishloq ayollaridir. Bir qaraganda sport bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlar soni ko'pchilikni tashkil etayotgandek ko'rinishi mumkin, lekin Respublikada sport bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan xotin-qizlar bilan taqqoslaganda bu juda oz ko'rsatkich [5. 164-b.].

Olib borgan kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki. Erkak murabbiylar tashkil

qiladigan jismoniy madaniyat va sport tadbirlariga nisbatan ayol murabbiylar tashkil qiladigan jismoniy madaniyat va sport tadbiriga 70% dan ko'proq xotin-qizlar ishtirok etishadi. Chunki mintaetimizga xos murabbiydan uyalish degan vaziyatga uchramaydilar. Ushbu muammolarni hal qilish va xotin-qizlar sportini rivojlantirish maqsadida 2007 yildan boshlab O'zDJTI da, 2013-yildan boshlab viloyatlar oliygohlaridagi jismoniy madaniyat fakultetlari tasarrufida xotin-qizlar sportini rivojlantirish bo'lim va guruhlarini tashkil qilib, ushbu bo'limga va guruhlarga talaba qizlar alohida tanlov asosida qabul qilindi [2. 28-b.]. Sog'lom ona – sog'lom bola, sog'lom turmush tarzi va mehnat (o'quv) jarayonlarida sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya vositalari bilan muntazam shug'ullanishga odatlanish mustahkam oila qurishni ta'minlashning poydevori desa maqsadga muvofiq keladi. Mustahkam oilaning mazmuni beqiyos ko'p tarmoqli iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, mehnat jarayonlarini o'zida mujas-samlashtiradi. Bunda jismoniy tarbiya va sportning o'ziga xos salmoqli salohiyatlari mavjuddir.

Mustahkam oila deganda eng avvalo, oila a'zolarining doimiy ravishda ma'naviy va jismoniy barkamollikka to'la erishuvini anglash lozim. Buning zaminida esa ota-onaning sihat-salomatligi, ma'naviy-ma'rifiy boylikka ega bo'lishi, faqat oiladagina emas, mehnatda, mahalla muhitida har tomon-lama namuna bo'lishi kabi axloq-odob, insoniy fazilatlarining mustahkam ravishda mavjudligidir.

Buning uchun esa uy-hovli sharoitida tegishli moslamalar yasash, zamonaviy sport asbob-uskunalari bilan jihozlashga to'g'ri keladi. Turar joylar, hiyobonlar, sog'lomlashtirish sport markazlari (trenajerlar) va tabiat manzaralariga boy bo'lgan joylarda turli mashq-o'yinlar, sayohatlarni tashkil qilish lozim bo'ladi.

Oilada sog'lom turmush tarzini shakillantirish maqsadida farzandlarini biron-bir sport turi bilan muntazam shug'ullanishlarini istagan ayollarimiz avvalo o'zlari sportga mehr qo'yishlari lozimdir. Agar erkaklar qatori sport ayollarning ham kundalik ehtiyojiga aylansa oilada, sog'lom turmush tarzini shakillantirishga erishiladi [4].

Xotin-qizlar sportini rivojlantirish orqali yurdoshlarimizning nufuzli halqaro musobaqalaridagi muvoffaqiyatlari oshsa Vatanimizning dunyo hamjamiyatidagi o'rni yanada yuksaladi.

Biroq, ayollar sportini rivojlantirish yo'nalishida yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Xususan:

- Xotin-qizlar sporti yo'nalishiga qabul kvotalarini ko'paytirish;
- Universitet xotin-qizlar qo'mitasi va mas'ul tashkilotlar hamkorligida jismoniy tarbiya va sport sohasida tahsil olayotgan talaba-qizlarning ahvolini o'rganish (ya'ni, turmush sharoiti, to'lov shartnomasi, ish bilan ta'minlanish imkoniyati va x.k.z.);
- Viloyatlarda mutaxassislarni jalb qilgan holda o'rta maxsus ta'lim muassasalari va maktablar, maxsus sport maktablarida faoliyat yuritayotgan ayol murabbiylarning umumiy holatini o'rganish. Ularni hech qanday qo'shimcha shartlarsiz sirtqi va maxsus sirtqi o'qish yo'nalishida oliy ma'lumotga ega bo'lishlari uchun yo'naltirish;
- Oliy ma'lumotli bo'lgan murabbiy-trenerlarning malakasini oshirish tizimini soddalashtirish, yaxshilash;
- Xorijiy tajribani o'rganish, mashg'ulotlar jarayoniga pedagogik va informatsion texnologiyalarni tadbiiq etish;
- Sportchi qizlarga mo'ljallangan mashg'ulotlar dasturini qayta ko'rib chiqish (qizlar bilan yigitlarga bir xil mashg'ulotlar o'tkaziladi.)

Eng asosiy muammolardan biri bu sport bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanishni istaydigan qizlarimiz uchun discomfot, ya'ni noqulayliklar (uyalish, qimtanish, hadiksirash) xususiyatlarining oldini olish bilan bog'liqdir. Bu holat xotin-qizlarimizning psixofiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, mazkur muammoning yechimini topishda maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar, ya'ni psixologlarning yordamiga taayanish lozim. Shu nuqtai nazardan har bir viloyatlardagi jismoniy tarbiya fakultetlarida maxsus psixolog shtatini ajratishni lozim deb hisoblaymiz va taklif etamiz. Bu mutaxassislar ayol organizmining morfologik,

funksional hamda psixologik parametrlarini yaxshi bilishlari, murabbiy trenerlar esa ular bilan jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish vaqti, davri, jismoniy yuklamalar miqdori, qizlarning emotsional holatlari to'g'risida doimiy maslahat olib borishlari lozim.

Yana bir muammolardan biri xotin-qizlar sporti yo'nalishi uchun maxsus ilmiy asoslangan dasturlar asosida yozilgan va tuzilgan zamonaviy darsliklar, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalarining deyarli yo'qligida. Bu muammoning yechimini topishda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti hamda joylardagi yetakchi olimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda darsliklarning yangi avlodini yaratish va ularni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz.

4.Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda xotin-qizlar sportini rivojlantirish, mamlakatimizda sog'lom avlodni voyaga yetkazish hamda taraqqiyotini rivojlantirishga muhim asoslardan biri bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va targ'ib qilish, turli xastaliklarning oldini olish, xotin-qizlar salomatligini mutahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalash borasidagi keng ko'lamli ishlar barcha yo'nalishlarda kompleks ravishda barcha mutasaddi tashkilotlarning faol ishtirokida amalga oshirilmoqda. Bu esa, davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimiz aholisi, birinchi navbatda, xotin-qizlar va bolalar salomatligini yaxshilash borasida ko'rsatilayotgan doimiy g'amxo'rligining samarasidir. Chunki, vatanimiz kelajagi ana shunday sog'lom xotin-qizlar, onalar va bolalarga bog'liqdir.

Mustahkam oila sharoitini ta'minlash, samarali mehnat qilish, uzoq umr ko'rib tetik, bardam, bo'lib yurish uchun muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga odatlanish lozim, qaysi kasb mehnat bo'lmasin, eng avvalo sihat-salomatlik asosiy o'rinda turadi. Ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol bo'lgan yoshlar oila qurishda va tinch-osuda yashashda mustahkam oilaning mazmuni, maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari zarurdir. Mustahkam oilaning tayanchi va poydevori sihat-salomatlikni ta'minlovchi jismoniy tarbiya vositalari ekanligini ongli ravishda bilish va his etishdan iboratdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Abdimavlonovna, A. S. (2023). Xotin-qizlar ortasida jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarini tayyorlash muammolari. *Ustozlar uchun*, 43(2), 183-188.
2. Ayollarning fan va sportdagi o'rni. Ilmiy amaliy anjuman tezislari to'plami. 2007 yil 14 aprel.
3. Esanova, G. (2023). O'zbekistonda ayollar futboli tarixi va istiqbollari. " Science Shine" International scientific journal, 3(3).
4. Fayziyev, I. S. (2021). Gender tengligi: ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 539-543.
5. Hamrayeva, Z. (2023). Xotin-qizlar sog'ligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sport turlarining ahamiyati. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(5 Part 2), 163-169.
6. Inagamova, M. M., & Xusanova, D. D. Q. (2022). O'zbekistonda gender tenglikka oid ayrim mulohazalar (milliy va xorijiy tajriba). *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 330-335.
7. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва Спорт тарихини (XX аср–XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида) ўрганишнинг долзарблиги. *Scienceweb academic papers collection*.
8. Nazirov, B. (2022). O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. *Scienceweb academic papers collection*.
9. Qodirova, X., & Boltaboyeva, U. (2022). Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishda xotin-qizlar sportining o'rni. *Oriental Art and Culture*, 3(1), 699-704.
10. Xotin – qizlar sporti: imkoniyatlar va istiqbollar / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 4-5 may 2018 y. / to'plovchi M. J. Abdullaev. – Buxoro: Durdona, 2018. - 286 b.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000